



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

JAHON SIYOSATIDA ENERGETIK XAVFSIZLIK: NAZARIY VA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR

Minovvarova Malikaxon Ulug‘bek qizi,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Maqolada jahon siyosatida energetik xavfsizlikning nazariy-konseptual asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot energetik xavfsizlikni nafaqat iqtisodiy resurs, balki mustaqil siyosiy va geosiyosiy kategoriya sifatida ko‘rib chiqadi. Mazkur tushuncha globallashuv, geosiyosiy raqobat va davlatlararo o‘zaro bog‘liqlik sharoitida shakllangan bo‘lib, energiya resurslari milliy xavfsizlik, tashqi siyosat va strategik boshqaruvga bevosita ta‘sir qiluvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Maqolada energetik xavfsizlikning iqtisodiy, siyosiy-geosiyosiy va institutsional yondashuvlari, shuningdek, uning tarixi, OPEC siyosati, neft inqirozlari va transmilliy hamkorlik kontekstida o‘rni ko‘rib chiqiladi. Realistik, liberal va konstruktivistik paradigmalar yordamida energiya resurslarining xalqaro munosabatlardagi qudrat, hamkorlik va ziddiyat mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, energetik xavfsizlik mintaqaviy-geosiyosiy kontekstda, tranzit yo‘llari, infratuzilma va institutsional mexanizmlar orqali milliy va global xavfsizlikni ta‘minlovchi markaziy strategik kategoriya sifatida ifodalanadi.

Kalit so‘zlar: energetik xavfsizlik, jahon siyosati, energiya resurslari, xalqaro munosabatlar, milliy xavfsizlik, geosiyosiy raqobat, OPEC, neft inqirozi, strategik boshqaruv, mintaqaviy hamkorlik

ЭНЕРГЕТИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ В МИРОВОЙ ПОЛИТИКЕ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ

Миновварова Маликахон Улугбек кизи

Ташкентский государственный университет востоковедения, базовый докторант

Аннотация

В статье анализируются теоретические и концептуальные основы энергетической безопасности в мировой политике. Исследование рассматривает энергетическую безопасность не только как экономический ресурс, но и как независимую политическую и геополитическую категорию. Данная концепция сформировалась в условиях глобализации, геополитической конкуренции и усиления взаимозависимости государств, при этом энергетические ресурсы напрямую влияют на национальную безопасность, внешнюю политику и стратегическое управление. В статье рассматриваются экономические, политико-геополитические и институциональные подходы к энергетической безопасности, ее историческое развитие, политика ОПЕК, нефтяные кризисы и роль транснационального сотрудничества. С помощью реалистических, либеральных и конструктивистских парадигм исследуются механизмы власти, сотрудничества и конфликта, формируемые энергетическими ресурсами в международных отношениях. Кроме того, энергетическая безопасность рассматривается в регионально-геополитическом контексте, подчеркивая стратегическое значение транзитных маршрутов, инфраструктуры и институциональных механизмов как ключевых элементов обеспечения национальной и глобальной безопасности.

Ключевые слова: энергетическая безопасность, мировая политика, энергетические ресурсы, международные отношения, национальная безопасность,

геополитическая конкуренция, ОПЕК, нефтяной кризис, стратегическое управление, региональное сотрудничество.

ENERGY SECURITY IN WORLD POLITICS: THEORETICAL AND CONCEPTUAL APPROACHES

Minovvarova Malikaxon Ulug‘bek qizi

Tashkent State University of Oriental Studies, Doctoral Researcher

Abstract

The article examines the theoretical and conceptual foundations of energy security in global politics. The study considers energy security not only as an economic resource but also as an independent political and geopolitical category. This concept has emerged amid globalization, geopolitical competition, and increasing interdependence between states, with energy resources directly influencing national security, foreign policy, and strategic governance. The article analyzes the economic, political-geopolitical, and institutional approaches to energy security, its historical development, OPEC policies, oil crises, and the role of transnational cooperation. Through realist, liberal, and constructivist paradigms, the mechanisms of power, cooperation, and conflict shaped by energy resources in international relations are examined. Moreover, energy security is framed in a regional-geopolitical context, highlighting the strategic significance of transit routes, infrastructure, and institutional mechanisms as central elements ensuring national and global security.

Keywords: energy security, global politics, energy resources, international relations, national security, geopolitical competition, OPEC, oil crisis, strategic governance, regional cooperation

Hozirgi globallashuv sharoitida energetika resurslari nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va strategik ahamiyatga ega omil sifatida xalqaro munosabatlarda markaziy o‘rin egallamoqda. Davlatlar va xalqaro tashkilotlar uchun energiya ta‘minotining uzluksizligi, narxlarning barqarorligi va resurslar ustidan strategik nazorat muhim xavfsizlik elementi hisoblanadi. Shu sababli energetik xavfsizlik konsepsiyasi nafaqat iqtisodiy resurslarni ta‘minlash bilan bog‘liq, balki milliy xavfsizlik, geosiyosiy pozitsiya va davlatlararo siyosiy raqobat bilan bevosita bog‘liq murakkab fenomen sifatida qaraladi.

Maqolada energetik xavfsizlikning nazariy va konseptual asoslari tahlil qilinadi, uning shakllanish tarixi, iqtisodiy, siyosiy va geosiyosiy o‘lchamlari, shuningdek, xalqaro va mintaqaviy darajadagi hamkorlik mexanizmlari o‘rganiladi. Tadqiqot doirasida realistik, liberal, konstruktivistik va institutsional yondashuvlar energetik xavfsizlikni tushunish va tahlil qilishda asosiy metodologik vosita sifatida ishlatiladi.

Shu bilan birga, maqolada energetik xavfsizlik tushunchasi turli davlatlar uchun qanday farqlanishi, importyor va eksportyor mamlakatlar manfaatlari, tranzit yo‘llari va resurslar ustidan nazorat kabi omillar asosida shakllanishi ham ko‘rib chiqiladi. Mazkur yondashuv energetik xavfsizlikni nafaqat iqtisodiy, balki mintaqaviy-geosiyosiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq strategik kategoriya sifatida tadqiq etish zaruratini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Energetika sohasi bugungi kunda davlatlarning milliy xavfsizligi, iqtisodiy barqarorligi va xalqaro maydondagi mavqeini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, “energetika – taraqqiyotning kaliti, zarur hollarda esa uning manbai hisoblanadi. Bugungi kunda energetika sohasi yetarli darajada rivojlanmas ekan, biror-

bir soha yoki tarmoqning barqaror rivoji haqida soʻz yuritish mumkin emas. Nafaqat ishlab chiqarish sohasi, balki insoniyatning kundalik hayotiy ehtiyojlarini qondirish bilan bogʻliq masalalar ham bevosita energetika bilan chambarchas bogʻliqdir. Aynan shu sababli energetika masalasi hozirgi davrda tobora muhim geosiyosiy muammoga aylanib bormoqda” [15].

Xavfsizlikni taʼminlash ijtimoiy hayotni siyosiy boshqaruv zarurati bilan bogʻliq jarayon sifatida namoyon boʻlishi bilan birga, energetik xavfsizlikni ham faqat iqtisodiy yoki texnik masala sifatida emas, balki strategik geosiyosiy hodisa sifatida eʼtirof etish zarur. Bugungi kunda “energetik xavfsizlik” tushunchasiga turli yondashuvlar, xususan, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy asosda turlicha taʼriflar berilmoqda. Ushbu tushunchaning tarixiy ildizlariga qaralganda, Birinchi jahon urushi arafasida Uinston Cherrchillning Buyuk Britaniya harbiy-dengiz flotini energiya taʼminotida koʻmirdan neftga oʻtkazish boʻyicha qabul qilgan strategik qarori energetik xavfsizlik nazariyasining ilk asoslarini yaratgan muhim voqea sifatida eʼtirof etiladi. Shu davrdan boshlab energetika masalasi davlatning harbiy qudrati, iqtisodiy barqarorligi va siyosiy mustaqilligini taʼminlovchi muhim element sifatida koʻriladigan boʻldi va energetik xavfsizlik milliy xavfsizlik tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi [10;81].

“Energetik xavfsizlik” dastlab iqtisodiy barqarorlik va resurslarning uzluksiz taʼminoti bilan bogʻliq texnik masala sifatida qaralgan boʻlsa-da, vaqt oʻtishi bilan u siyosiy mazmun bilan boyidi. XX asrning ikkinchi yarmida energiya taʼminotidagi uzilishlar, narxlarning keskin oʻzgarishi va resurslar uchun ortib borayotgan raqobat energetik xavfsizlikni davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylantirdi. Shu davrdan boshlab, bizning qarashimizcha, energetik xavfsizlik mustaqil siyosiy kategoriya sifatida shakllana boshladi.

“Energetik xavfsizlik” tushunchasining institutsional asoslari XX asr oʻrtalarida shakllandi. Xususan, AQShda qabul qilingan 1947-yilgi “Milliy xavfsizlik toʻgʻrisida”gi qonun (National Security Act of 1947) davlat xavfsizligini harbiy, siyosiy va iqtisodiy omillar majmuasi sifatida belgilab berdi [8]. Ushbu qonunda sanoat va strategik resurslarning uzluksiz taʼminoti milliy xavfsizlikning ajralmas sharti sifatida belgilandi va aynan shu yondashuv keyinchalik energetik xavfsizlik konsepsiyasining shakllanishiga zamin yaratdi. Shu davrdan boshlab mazkur tushuncha bozor iqtisodiyotiga asoslangan, sanoati rivojlangan mamlakatlarda milliy xavfsizlik tizimining muhim tarkibiy elementi sifatida keng qoʻllanila boshlandi [13;178-182]. Mazkur normativ-huquqiy hujjat davlatning milliy xavfsizligini taʼminlash sohasida institutsional asoslarni yaratib, energiya taʼminotini davlat xavfsizligining muhim tarkibiy qismi sifatida belgilab berdi.

XX asrning ikkinchi yarmida “energetik xavfsizlik” tushunchasi bosqichma-bosqich kengayib, mazmuni chuqurlashdi. 1940-1950-yillarda u asosan harbiy-sanoat majmuasi ehtiyojlarini barqaror energiya bilan taʼminlash bilan cheklangan boʻlsa, keyinchalik iqtisodiy va siyosiy omillar bilan boyidi. 1960-1970-yillarda jahon energetika bozoridagi tub oʻzgarishlar, xususan, neft eksport qiluvchi davlatlarning faollashuvi va 1973 hamda 1979-yillardagi neft inqirozlari energetik xavfsizlikni global muammo darajasiga koʻtarishga sabab boʻldi. Shu davrda u nafaqat ichki ishlab chiqarish, balki tashqi taʼminot manbalari diversifikatsiyasi, tranzit yoʻllarining xavfsizligi va narx barqarorligi bilan bogʻliq tushuncha sifatida shakllana boshladi.

1980-1990-yillarda esa “energetik xavfsizlik” geosiyosiy mazmun kasb etdi. Sovuq urushning yakunlanishi, yangi mustaqil davlatlarning paydo boʻlishi va energiya resurslari uchun raqobatning kuchayishi energetikani xalqaro munosabatlarda muhim vosita sifatida koʻrsatdi. Shu bilan birga, ekologik omillar va barqaror rivojlanish konsepsiyasi energetik xavfsizlikka yangi, yaʼni ekologik va ijtimoiy oʻlehamlarni qoʻshdi. Natijada, XX asr oxiriga kelib, energetik xavfsizlik faqat resurslar mavjudligi bilan emas, balki ularning barqaror,

siyosiy jihatdan xavfsiz, iqtisodiy va ekologik maqbul bo'lishi bilan tavsiflanadigan ko'p qirrali tushunchaga aylandi.

XX asrning ikkinchi yarmida neft resurslarini import qiluvchi G'arb davlatlari bilan eksportyor mamlakatlar o'rtasidagi manfaatlar qarama-qarshiligi ushbu tushunchaning rivojiga kuchli turtki berdi. Neft eksport qiluvchi davlatlarning OPEK doirasida birlashuvi energetik resurslar ustidan milliy suverenitetni mustahkamlashga qaratilgan siyosiy-iqtisodiy strategiya sifatida namoyon bo'ldi [10;70-72].

Energetik xavfsizlikning siyosiy ahamiyati 1970-yillardagi neft inqirozlari bilan yaqqol namoyon bo'ldi. Bu inqirozlar energiya resurslarining nafaqat iqtisodiy balki geosiyosiy qudrat manbai ekanini ko'rsatdi. Energiya eksport qiluvchi davlatlar resurslarini tashqi siyosiy bosim vositasi sifatida qo'llash imkoniyatiga ega ekanini isbotladi. Shu tariqa energiya importiga qaram davlatlar uchun energetik xavfsizlik milliy xavfsizlikning ajralmas qismiga aylangan va importyor hamda eksportyor davlatlar uchun u turlicha talqin qilina boshladi. Importyorlar uchun barqaror va maqbul narxlarda ta'minot, eksportyorlar uchun esa yuqori narxlarni saqlash va neft-gaz sektoriga tayanib milliy iqtisodiyotni rivojlantirish muhim bo'ldi [12].

Shu tariqa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab energetik xavfsizlik iqtisodiy kategoriya doirasidan chiqib siyosiy va geosiyosiy mazmun kasb etib zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Energetik resurslar narxi va uning siyosiy ta'sirini tahlil qilishda bir qator tarixiy omillarga e'tibor qaratish zarur. Energetik xavfsizlik uzoq vaqt davomida milliy xavfsizlikning muhim qismi sifatida narxlarning keskin o'zgarishi va neft yetkazib berish hajmining qisqarishi bilan bog'liq tahdidlar orqali talqin qilindi. Bunday vaziyat davlatlarning iqtisodiy rivoji xalqaro energetik siyosati va diplomatik faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bugungi kunda esa energetik xavfsizlikka tahdidlar doirasi kengayib energetik terrorizm kabi yangi xavf omillari, ya'ni neft va gaz sanoatiga yo'naltirilgan tahdidlar ham qo'shildi.

1973-yilgi jahon neft inqirozi energetik xavfsizlik tushunchasining mazmunan tabaqalanishiga olib keldi. Buning asosiy sababi neftni import qiluvchi va eksport qiluvchi davlatlarning iqtisodiy hamda siyosiy manfaatlari turlicha bo'lib, ularning milliy energetik siyosatlari ham alohida-alohida shakllana boshlaganidir. Shu bilan birga, energetik xavfsizlikni ta'minlash jarayonida energetik suverenitet tushunchasining turli talqinlari ham shakllandi. Bunga sabab, energetik xavfsizlik konsepsiyasining turli davlatlar va davlatlar guruhlari tomonidan o'z milliy manfaatlari doirasida turlicha talqin qilinishi bilan izohlanadi. Xususan, energoresurslarni import qiluvchi davlatlar past va barqaror narxlarda uzoq muddatli, ishonchli energiya ta'minotidan manfaatdor bo'lsa, eksportyor davlatlar uchun energetik xavfsizlik yuqori narxlarda energiya xom ashyosini yetkazib berish barqarorligini ta'minlash, neft-gaz sektorining samaradorligini qo'llab-quvvatlash hamda uglevodorod resurslaridan olinadigan moliyaviy-iqtisodiy salohiyatdan foydalanish orqali zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir [14].

Shunday qilib, zamonaviy tadqiqotlarda energetik xavfsizlik faqat iqtisodiy barqarorlik omili emas, balki milliy va xalqaro xavfsizlik tizimining muhim qismi sifatida qaraladi. Shu jihatdan u geosiyosiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab va ko'p qirrali fenomen sifatida tahlil qilinishi lozim.

Energiya ta'minotining uzluksizligi, narxlarning barqarorligi hamda resurslarning strategik taqsimoti davlatlararo barqarorlikni ta'minlash va strategik siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida muhim omil bo'lib xizmat qiladi [4]. Shu bilan birga, energetika xavfsizligi transmilliy hamkorlik va integratsiyani mustahkamlovchi vosita sifatida namoyon bo'lib, davlatlarni energiya siyosatini muvofiqlashtirish, bozor shaffofligini oshirish va umumiy

xavfsizlik mexanizmlarini shakllantirishga undaydi. Natijada energetika xavfsizligi xalqaro munosabatlarda energiya siyosatini global barqarorlik va xavfsizlik arxitekturasini bilan uzviy bog'lovchi muhim siyosiy kategoriya sifatida shakllanadi.

Ilmiy adabiyotlarda keng tarqalgan iqtisodiy yondashuv energetik xavfsizlikni, avvalo, energiya resurslarining yetarli hajmda, uzluksiz va maqbul narxlarda yetkazib berilishi bilan bog'laydi. Xususan, J.Bielecki [3] energetik xavfsizlik – bu jahon iqtisodiyoti ehtiyojlarini qondirishga qodir bo'lgan, ishonchli va yetarli energiya ta'minotining maqbul narxlarda barqaror ta'minlanganlik holatidir. Muallif energiya narxlarining keskin o'zgarishi va ta'minotdagi uzilishlar milliy hamda global iqtisodiy barqarorlikka jiddiy tahdid solishini alohida ta'kidlaydi. Mazkur iqtisodiy yondashuv energetik xavfsizlikni asosan bozor mexanizmlari va narx omillari bilan bog'laydi. OECD ekspertlari R.Barton, J.P.Charpentier va boshqalar energetik xavfsizlikni “mavjud iqtisodiy talablar sharoitida energiya zarur hajm va sifatda, texnik va iqtisodiy jihatdan maqbul sharoitlarda ta'minlanish kafolati” [1] sifatida ta'riflaydi. Daniel Yergin tomonidan ishlab chiqilgan konseptual yondashuvda energetik xavfsizlik yanada kengroq, ya'ni siyosiy va geosiyosiy kontekstda ko'rib chiqiladi. Yerginga ko'ra, energetik xavfsizlik energiya resurslariga uzoq muddatli va ishonchli kirish imkoniyatini ta'minlash, shuningdek, bu jarayonda siyosiy beqarorlik, mintaqaviy mojarolar va davlatlararo raqobat bilan bog'liq xavflarni minimallashtirishni anglatadi. U 1973-yilgi neft inqirozi energetik xavfsizlik masalasining global siyosiy muammo sifatida shakllanishida burilish nuqtasi bo'lganini qayd etadi. Ya'ni, uning ta'kidlashicha, energetik xavfsizlik – bu “energiya resurslarining maqbul narxlarda, barqaror va uzluksiz yetkazib berilishiga bo'lgan ishonch” [11;24-25] bo'lib, u davlatlarning iqtisodiy rivoji va siyosiy barqarorligi bilan bevosita bog'liqdir.

Umuman olganda, iqtisodiy yondashuv energetik xavfsizlikni bozor mexanizmlari, narx barqarorligi va investitsiya muhitiga bog'lab tushuntiradi. Bu yondashuv energiya bozoridagi talab va taklif muvozanatini tahlil qilish imkonini beradi, biroq siyosiy beqarorlik, davlatlararo ziddiyatlar, tranzit mojarolari va sanksiyalar kabi omillarni yetarli darajada hisobga olmaydi. Shu bois siyosiy va geosiyosiy yondashuv energetik xavfsizlikni milliy xavfsizlik va tashqi siyosiy manfaatlar bilan bog'liq strategik hodisa sifatida talqin qiladi. Tadqiqotchilar energiya resurslarini davlatlararo raqobat va siyosiy ta'sir instrumenti sifatida ko'rib, kuchlar muvozanati va geosiyosiy manfaatlar kontekstida tahlil qiladilar. Ushbu yondashuv 1973-yilgi neft inqirozi, OPEK siyosati va energiya resurslarining siyosiy vositaga aylanish jarayonlarini tushuntirishda yuqori izoh beradi. Biroq u har doim energiya bozorining ichki iqtisodiy mantiqi va texnologik omillarini hisobga olmaydi.

Energetik xavfsizlikka nisbatan institutsional va tizimli yondashuv yuqoridagi ikki yondashuvni qisman uyg'unlashtirishga intiladi. Xususan, IEA talqiniga ko'ra [6], energetik xavfsizlik – bu energiya resurslarining iste'molchilarga maqbul narxlarda uzluksiz yetkazib berilishini ta'minlash bo'lib, bunda qisqa muddatli xavflar (ta'minotdagi favqulodda uzilishlar) va uzoq muddatli xavflar (investitsiya yetishmovchiligi, infratuzilmaning eskirishi) o'rtasidagi muvozanat muhim ahamiyat kasb etadi. Agentlik energetik xavfsizlikni ta'minlashda strategik zaxiralar yaratish, energiya manbalarini diversifikatsiya qilish va xalqaro hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirishni asosiy vosita sifatida ko'rsatadi.

Mazkur yondashuvlarda energetik xavfsizlikning asosiy obyektlari sifatida shaxs jamiyat va davlat manfaatlarini belgilangan bu esa xavfsizlikning ko'p darajali xususiyatini ko'rsatadi. Boshqa talqiniga ko'ra energetik xavfsizlik davlat uning fuqarolari jamiyat va milliy iqtisodiyotning barqaror energiya ta'minotiga nisbatan yuzaga keladigan tahdidlardan himoyalanganlik holatini ifodalaydi. Ushbu yondashuvning muhim jihati shundaki, u energetika tizimining nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy, texnologik va tabiiy omillar ko'rinishidagi

ichki hamda tashqi tahdidlarga qarshi tura olish salohiyatini ham o'zida mujassam etadi [13].

G'arb tadqiqotchilari "energetik xavfsizlik" tushunchasini, avvalo, energiya resurslarini import qiluvchi davlatlar manfaatlari bilan bog'laydi. Jumladan, R.Belgrave, Ch.K.Ebinger va H.Okino energetik xavfsizlikni import qiluvchi mamlakatlarning kelgusidagi ehtiyojlarini qondira oladigan barqaror va ishonchli energiya ta'minotiga bo'lgan kafolat sifatida talqin etadi [2].

Cherp va Dyuvell energiya xavfsizligini "energiya ta'minotining uzluksizligi va narxlar barqarorligini saqlab qolish orqali davlatning siyosiy va iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan holat" sifatida izohlaydi [5]. Shu sababli energetika xavfsizligi milliy xavfsizlikning ajralmas tarkibiy qismi sifatida baholanadi.

World Energy Council (WEC) yondashuvida esa energetik xavfsizlik barqaror rivojlanish konsepsiyasi bilan uzviy bog'lanadi. WEC energetik xavfsizlikni energiya ta'minotining uzluksizligi, xilma-xilligi va tizimning turli siyosiy, iqtisodiy hamda texnogen tahdidlarga moslashuvchanligi sifatida talqin qiladi [9]. Ushbu yondashuv "energetik uchlik": energetik xavfsizlik, energetik tenglik va ekologik barqarorlik doirasida shakllanib, energetika masalalariga kompleks va muvozanatli yondashishni nazarda tutadi.

Yuqoridagi konsepsiyalarda energetik xavfsizlik ko'p qavatli tizim sifatida ko'riladi va unda qisqa hamda uzoq muddatli xavflar, davlatlararo hamkorlik, institutlar va moslashuvchanlik muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv orqali energetik xavfsizlikni nafaqat milliy, balki mintaqaviy va global kontekstda tahlil qilish imkoniyati mavjud. Shunga qaramay, institutsional yondashuv real geosiyosiy ziddiyatlar va kuchlar asimmetriyasini doimo to'liq ochib bera olmaydi.

Turli yondashuvlarning taqqosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, energetik xavfsizlikni to'liq tushunish uchun ularni alohida emas, balki kompleks va integratsiyalashgan tarzda qo'llash zarur. Ayniqsa, globallashuv davrida energiya resurslari ta'minoti ko'pincha mintaqaviy xususiyatga ega bo'lib, tranzit yo'llari va infratuzilmaning joylashuvi energetik xavfsizlikni mintaqaviy-geosiyosiy jarayonlar bilan uzviy bog'lashni talab qiladi.

Nazariy nuqtai nazardan, realistik yondashuv energetik xavfsizlikni davlatlar o'rtasidagi raqobat va qudrat muvozanati bilan izohlaydi. Ushbu yondashuvga ko'ra, energiya resurslari ustidan nazorat milliy manfaatlarni ta'minlashning asosiy vositalaridan biridir. Biroq u energiya bozorlaridagi o'zaro bog'liqlik va institutlar rolini yetarlicha hisobga olmaydi. Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, energetik xavfsizlikni faqat kuch va bosim kategoriyasi orqali izohlash yetarli emas.

Liberal yondashuv energetik xavfsizlikni davlatlar o'rtasidagi hamkorlik va o'zaro manfaatlar orqali ta'minlash mumkinligini ilgari suradi. Ushbu yondashuvning asosiy tayanch nuqtalari sifatida energiya bozorlarining liberallashtiruvchi, xalqaro tashkilotlar va ko'p tomonlama kelishuvlar xizmat qiladi. Biroq amaliyotda energetika sohasidagi inqirozlar va siyosiy ziddiyatlar aynan o'zaro bog'liq hududlarda ko'pincha yuzaga keladi, bu esa liberal yondashuvning cheklovlarini ko'rsatadi va energetik xavfsizlikni faqat iqtisodiy manfaatlar uyg'unligi orqali ta'minlash mumkin degan qarashni shubha ostiga qo'yadi.

Konstruktivistik yondashuv esa energetik xavfsizlikning boshqa muhim jihatini ochib beradi. Ushbu yondashuvga ko'ra, energetik xavfsizlik faqat moddiy resurslar yoki infratuzilma bilan aniqlanmaydi; balki davlatlarning energiya masalasiga siyosiy diskurs orqali yuklagan ma'nosi siyosatning real mazmunini belgilaydi. Masalan, "energiya mustaqilligi" ba'zi davlatlar uchun strategik avtonomiya ramzi bo'lsa, boshqalar uchun u faqat iqtisodiy samaradorlik bilan cheklanishi mumkin. Shu sababli, energetik xavfsizlik ijtimoiy-siyosiy konstruksiya sifatida doimiy ravishda qayta talqin qilinadi.

Shu nuqtayi nazardan, ushbu tadqiqotda energetik xavfsizlikni tahlil qilishda

mintaqaviy-geosiyosiy yondashuv ustuvor metodologik asos sifatida qabul qilinadi. Mualliflik pozitsiyasiga ko'ra, energetik xavfsizlik nafaqat energiya resurslarining mavjudligi yoki narx barqarorligi bilan belgilanadi, balki mintaqaviy siyosiy muhit, davlatlararo munosabatlar xarakteri, tranzit infratuzilmasi ustidan nazorat, institutsional hamkorlik darajasi hamda geosiyosiy raqobat bilan bevosita bog'liq murakkab siyosiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Aynan mintaqaviy darajada energetik manfaatlar kesishadi, ziddiyatlar kuchayadi va hamkorlik mexanizmlari shakllanadi. Shu sababli globallashuv sharoitida energetik xavfsizlikni faqat iqtisodiy yoki texnik masala sifatida emas, balki mintaqaviy geosiyosiy muvozanatni belgilovchi strategik kategoriya sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir. Ushbu yondashuv dissertatsiyaning keyingi boblarida energetika omilining mintaqaviy tashqi siyosat va energetika diplomatiyasiga ta'sirini tahlil qilish uchun konseptual asos sifatida xizmat qiladi.

Alohida ta'kidlash lozimki, energetik xavfsizlik bo'yicha ishlab chiqilgan nazariy modellar ko'pincha rivojlangan industrial davlatlar tajribasiga tayangan. Markaziy Osiyo mintaqasi, jumladan O'zbekiston sharoitida esa energetik xavfsizlik masalasi tranzit imkoniyatlari, mintaqaviy integratsiya va tashqi bozorlar bilan bog'liqlik orqali namoyon bo'ladi. Shu sababli energetik xavfsizlikni tahlil qilishda umumiy nazariy yondashuvlarni mintaqaviy xususiyatlar bilan uyg'unlashtirish zarurati mavjud.

Xulosa qilganda, birinchidan, energetik xavfsizlik nafaqat iqtisodiy resurslar bilan bog'liq masala, balki siyosiy, geosiyosiy, ekologik va institutsional omillarni o'z ichiga olgan murakkab va ko'p qirrali fenomen sifatida namoyon bo'ladi. Energiya ta'minotining uzluksizligi, narxlarning barqarorligi va resurslarning strategik taqsimoti davlatlararo barqarorlik va siyosiy qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi;

Ikkinchidan, energetik xavfsizlik konsepsiyasi tarixan davlatlarning siyosiy mustaqilligi va iqtisodiy barqarorligini ta'minlash zarurati bilan shakllangan. Cherkhillning harbiy-dengiz flotini ko'mirdan neftga o'tkazish qarori va 1947-yilgi Milliy xavfsizlik qonuni nazariy va institutsional asoslarni yaratgan, XX asrning ikkinchi yarmida esa neft inqirozlari va OPEC siyosati orqali energetik xavfsizlik siyosiy va geosiyosiy hodisaga aylangan;

Uchinchidan, energetik xavfsizlikni tushunishda iqtisodiy (energiyaning yetarli hajmda va maqbul narxlarda ta'minlanishi), siyosiy-geosiyosiy (davlatlararo raqobat va tranzit yo'llarining xavfsizligi) va institutsional (strategik zaxiralar, diversifikatsiya, xalqaro hamkorlik mexanizmlari) yondashuvlar kompleks tarzda qo'llanilishi lozim. Faqat integratsiyalashgan tahlil energetik xavfsizlikning to'liq mohiyatini ochib beradi;

To'rtinchidan, globallashuv sharoitida energetik resurslar ta'minoti ko'pincha mintaqaviy darajada shakllanadi, tranzit infratuzilmasi va resurslar ustidan nazorat davlatlararo siyosiy muvozanatni belgilaydi. Shu bois energetik xavfsizlikni mintaqaviy-geosiyosiy kontekstda, davlatlararo ziddiyatlar va hamkorlik mexanizmlari nuqtai nazaridan tahlil qilish afzaldir.

Demak, energetik xavfsizlik zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida murakkab va ko'p o'lchovli siyosiy kategoriya sifatida shakllangan. U iqtisodiy barqarorlik, milliy xavfsizlik va geosiyosiy manfaatlar kesishgan nuqtada joylashgan bo'lib, davlatlarning tashqi siyosiy qarorlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aynan shu jihat "energetik xavfsizlik" tushunchasini zamonaviy siyosiy tahlilning markaziy elementlaridan biriga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Barton B., Redgwell C., Rønne A., Zillman D. Energy Security: Managing Risk in a Dynamic Legal and Regulatory Environment. – Oxford: Oxford University Press, 2004.
2. Belgrave R., Ebinger Ch. K., Okino H. Energy Security to 2000. – Aldershot: Gower, 1987.

3. Bielecki J. Energy security: is the wolf at the door? // Quarterly Review of Economics and Finance. – 2002. – Vol.42,. – Issue 2.
4. Brown M.A., Sovacool B.K. Climate Change and Global Energy Security: Technology and Policy Options. – Cambridge: MIT Press, 2011.
5. Cherp A., Jewell J. Energy Security, in: The Oxford Handbook of Energy Politics. Oxford University Press, 2014.
6. IEA. Energy Supply Security: The Emergency Response of IEA Countries 2014. – Paris: International Energy Agency, 2014.
7. Mukhammadolim Mukhammadsidiqov, & Abrar Turaev. (2020). The Influence Of The Energy Factor On Modern International Relations. The American Journal of Political Science Law and Criminology, 2(12), 5–15. <https://doi.org/10.37547/tajpslc/Volume02Issue12-02>
8. National Security Act of 1947. Public Law 80–253, United States Statutes at Large. – Washington D.C., 1947. – Sections.
9. World Energy Council. World Energy Resources: 2013 Survey. – London: World Energy Council, 2013.
10. Yergin D. Ensuring Energy Security // Foreign Affairs. – 2006. – Vol. 85. – No. 2.
11. Yergin D. The Prize: The Epic Quest for Oil, Money and Power. – New York: Free Press, 2006.
12. Yergin D. The Quest: Energy, Security, and the Remaking of the Modern World. – New York: Penguin Press, 2011.
13. Гафуров А.Р. Сущность категории "энергетическая безопасность" и ее место в общей структуре безопасности // Вестник МГТУ. – Том 13. – №1. – 2010.
14. Жизнин С.З. Энергетическая дипломатия России. – М., 2005.
15. Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. – Т.14. – Т.: Ўзбекистон, 2006.